

JAHON ADABIYOTI VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI

O‘rolova Jasmina Bahodirovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Ergasheva Rayxon O‘tkirovna

Ilmiy rahbar. TISU o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19239726>

Annotatsiya. Ushbu maqola jahon va o‘zbek adabiyotida ayollar obrazining tarixiy taraqqiyoti, badiiy talqini hamda ijtimoiy – madaniy ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Maqola ayol obrazining unversalligi va o‘ziga xos poetik jihatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ayol obrazi, adabiy talqini, badiiy tahlili, sadoqat, ma’naviy ruh.

THE IMAGE OF WOMEN IN WORLD LITERATURE AND UZBEKISTAN LITERATURE

Abstract. This article shows the historical development, artistic interpretation, and socio – cultural significance of the image of women in world and Uzbek literature. THE article aims to highlight the universality and unique poetic aspect of the image of women.

Keywords: female image, literary interpretation, artistic analysis, devotion, spiritual spirit.

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье рассматривается историческое, художественная интерпретация и социокультурное значение образа женщины в мировой и узбекской литературе. Цель статьи – подчеркнуть универсальность и уникальный поэтический аспект образа женщины.

Ключевые слова: женский образ, литературная интерпретация, художественный анализ, преданность, духовный дух.

KIRISH.

Adabiyot – inson ruhiyati, jamiyat hayoti va tarixiy jarayonlarning badiiy ifodasidir. Unda ayol obrazi alohida o‘rin tutadi. Turli davr va makonlarda yaratilgan asarlarda ayol siymosi goh mehr-muhabbat timsoli, goh fidoiy ona, goh jasoratli kurashchi, goh esa jamiyatdagi tengsizlik qurboni sifatida tasvirlangan. Dunyo adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham ayol obrazi turfa qirralari bilan yoritilib, har bir davrning ma’naviy-estetik qarashlarini aks ettirib keladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida ayol ko‘proq go‘zallik, sadoqat va ilohiy ishq timsoli sifatida tasvirlangan.

Xususan, Alisher Navoiy g‘azallarida ma’shuqa obrazi yuksak badiiylik bilan madh etiladi.

Bu obraz ko‘pincha ramziy ma’noga ega bo‘lib, komillik va go‘zallik timsoli sifatida gavdalaniriladi. Alisher Navoiy asarlarida ayollarning jamiyatdagi o‘rni va maqomi ham diqqatga sazovordir. Shoir o‘zining “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan axloqiy me’yorlar va ijtimoiy qadriyatlarni baholaydi. Shu o‘rinda aytish joizki, ayollar obrazi orqali muayyan tarixiy davrning ijtimoiy manzarasi ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazini olaylik. U sodda, orzulari yuksak, biroq erksiz ayol sifatida tasvirlanadi. Erining xiyonati va muhit zulmi ostida qolgan Zebi mazlum, begunoh va fojiali taqdir qurboniga aylanadi. Zebi obrazi orqali ijodkor o‘sha davr jamiyatidagi inson erkinligi, xotin-qizlar huquqi va shaxs fojiasi kabi dolzarb masalalarni badiiy talqin etgan (Cho‘lpon, 2024: 5). Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumush obrazi o‘zbek ayolining sadoqatli, sabrli, mard, ammo ayanchli taqdirini aks ettiradi.

Kumush kamtar, iffatli, uyatchan, shu bilan birga kuchli iroda sohibasi sifatida tasvirlangan. Adib ushbu obraz orqali o'sha davr jamiyatidagi ijtimoiy muhitni, ayniqsa, ayollar taqdiriga ta'sir ko'rsatgan ayrim adolatsiz urf-odat va qarashlarni badiiy yoritib bergan (Abdulla Qodiriy, 2024: 367). Ayollar obrazi adabiyotda nafaqat nafislik va latofat timsoli sifatida, balki tirishqoqlik, mehnatsevarlik va matonat ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyevning so'nggi asarlaridan biri bo'lgan "Qiz bolaga tosh otmang" teleromanida Xurshida obrazi ana shunday ayol qiyofasini ifodalaydi. Asarda qahramonning o'z ishini yo'lga qo'yish, uni rivojlantirish yo'lidagi mashaqqatlari, ruhiy iztiroblari va erishgan yutuqlari hayotiy hamda ta'sirchan tarzda tasvirlangan (Xudoyberdi To'xtaboyev, 2025: 58–67). Gulsevar Yusupovaning "Farrosh ayol" hikoyasida esa oddiy mehnatkash ayolning insoniy fazilatlari yorqin ifoda topadi. Hikoya qahramoni Saida opa mehnatkash, oqila va vazmin ayollardan biri sifatida tasvirlanadi. Bir kuni Dilbar ismli qiz Saida opa tozalayotgan joydagi chelakka qoqilib yiqilib tushadi va jahli chiqib, farrosh ayolga baqira boshlaydi. Biroq Saida opa unga keskin javob qaytarmaydi, aksincha, vaziyatni muloyimlik bilan bartaraf etishga harakat qilib, uzr so'raydi.

Oradan bir necha kun o'tgach, Saida opa kasal bo'lib qoladi va maktabga ishga kela olmaydi.

Uning yo'qligi tezda seziladi: odatda u barcha xonalarni tozalab, changlarni artib, gullarga suv quyib, atrofga fayz bag'ishlab turar edi. Endi esa maktab xonalarida chang-g'ubor ko'payib, gullar ham so'lib borayotgan edi. Shu holat Dilbarni o'z qilmishi haqida o'ylashga majbur qiladi.

Saida opa ishga qaytgach, u qilgan ishidan pushaymon bo'lib, undan kechirim so'raydi (G. Yusupova, 2024: 2–50). Xoliyor Safarovning "Ona vidosi" asarida bosh qahramon Muazzam xola obrazi orqali urush davrida onalarning ruhiy iztiroblari va fojeali taqdiri tasvirlanadi. Asarda Muazzam xolaning eri hamda ikki o'g'lining urushga ketishi uning qalbiga og'ir zarba bo'ladi.

Ona kenja o'g'li Jamshidni ham urushga olib ketishlaridan qo'rqib, uni saqlab qolish uchun bir chora o'ylab topadi. Oradan bir necha oy o'tgach, davlat xizmatchilari Jamshidni so'rab uyga kelishadi. Muazzam xola ularni aldab, o'g'li allaqachon urushga ketganini aytadi. Biroq ular bunga ishonch hosil qilish maqsadida uyni tintuv qilishadi, ammo Jamshidni topa olishmaydi.

Aslida esa Jamshid hovlida hojatxona uchun qazilgan o'rada yashirinib yotgan edi. Vaqt o'tib urush tugaydi va Muazzam xolaning o'rtancha o'g'li Komil frontdan omon qaytib keladi. U uyga kelishi bilan ukasi Jamshid haqida so'raydi. Ona esa uni o'ra tomon boshlaydi. Afsuski, u yerda Jamshid ko'ksiga pichoq sanchilgan holda yotar edi. O'ra devorida esa quyidagi so'zlar yozib qoldirilgan edi: "Onam uchun urushga bormay, shu yerda o'zim bilan olishib yotibman." Bu fojeali manzara onaning qalbini larzaga soladi. Muazzam xola o'zini bu ishda aybdor his qilib, iztirob bilan: "Ajaling yetmasa, sen ham bir kun kelib qaytar eding..." deya dod solib yig'laydi (X. Safarov, 2025: 15–19). Muazzam xola obrazi orqali ijodkor urush davrida onalarning chekkan iztiroblarini, ularning farzand taqdiri oldidagi iztirobli tanlovlarini ochib berishga harakat qilgan.

O'sha davr muhitida ayollar nafaqat ona sifatida, balki erkaklar zimmasidagi ko'plab mas'uliyatlarni ham o'z yelkalariga olib, oilani saqlab qolish uchun kurashganlar. Shu bois ham adabiyotda ona obrazi ko'pincha matonat va sabr-toqat timsoli sifatida talqin etiladi.

Jahon adabiyotida ayol obrazi turli xalqlarning ma'naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy tajribalarini aks ettiruvchi muhim badiiy timsollardan biridir. Xalq og'zaki ijodi hamda yozma adabiyot namunalari orqali ayollarning aql-zakovati, farosati, sadoqati va matonati yoritib berilgan.

Alban xalq ertagi “Farosatli qiz”da saramjon, aqlli va dono qizlar haqidagi tasavvurlar badiiy ifoda topgan. Asarda bosh qahramon bir yigit bo‘lib, u uylanish niyatida ko‘plab go‘zal qizlarni ko‘rgan bo‘lsa-da, ularning hech biri ko‘ngliga ma‘qul kelmaydi.

Kunlardan bir kuni otasining do‘sti unga bir odamning qizi borligini, u juda iboli, chaqqon va farosatli qiz ekanini aytadi. Yigit qizning otasini bozorda uchratib qoladi va unga ergashib, narigi qishloqda yashashini aytib, uning uyiga boradi. Qizning otasi mehmonni uyga taklif qiladi.

Yigit uyga kirar ekan, atrofdagi hamma narsaga diqqat bilan nazar tashlaydi: uy juda toza, ozoda va tartibli edi. Hovlida esa qiz ishlayotganini ko‘radi. Shunda u cholga: “Uyingiz menga juda yoqdi, tartibli va shinam ekan”, deydi. Ertasi kuni yigit qaytish chog‘ida cholga asl maqsadini – qiziga sovchi bo‘lib kelganini aytadi. Chol bu masalani qizi bilan maslahatlashishini bildiradi. U qiziga yigitning biroz g‘alati tuyulganini aytadi. Qiz esa otasiga yigit aslida aqlli ekanini tushuntiradi. Uning “Uyingiz tartibli, ammo mo‘ringiz qiyshiq” degan so‘zlari o‘zining oyog‘idagi nuqsonni nazarda tutganini anglatadi. Qizning farosati va mulohazakorligini ko‘rgan ota uni yigitga berishga rozilik bildiradi. Mazkur ertak orqali inson tashqi go‘zallik bilangina emas, balki aql-zakovat, farosat va ezgu fazilatlar bilan ham baxtga erishishi mumkinligi ta‘kidlanadi.

Umuman olganda, ayol – hayot davomchisi va jamiyat ko‘zgusi hisoblanadi. Uning ta‘lim-tarbiyasi hamda ma‘naviy saviyasi jamiyat kelajagini belgilab beradi. Hind xalq ertagi “Ona qarzi” ham ona mehrining buyukligini ifodalovchi asarlardan biridir. Asarda Rafiq ismli bola otasining qilgan ishlari hisobini yozib borayotganini ko‘rib, bu nima ekanini so‘raydi. Otasi bu “naryad”, ya‘ni bajarilgan ishlarning hisob-kitobi ekanini tushuntiradi. Shundan so‘ng Rafiq ham o‘zi qilgan kichik ishlar uchun onasiga “hisob” yozib, 2 rupiya 80 paysa talab qiladi. Onasi esa bunga javoban farzandini voyaga yetkazish uchun o‘n ikki yil davomida qilgan barcha mehnatini sanab chiqadi va ularning qiymatini “0 rupiya 0 paysa” deb yozadi. Bu orqali ona farzand uchun qilinadigan xizmat va mehr-muhabbat hech qanday haq talab qilmasligini anglatadi. Bu holat Rafiqni chuqur o‘ylantiradi va u qilgan ishidan uyalib, onasidan uzr so‘raydi. Onaning bu saboqli harakati bola uchun bir umr unutilmas ibratga aylanadi. Antik yunon adabiyotining buyuk namunalaridan biri bo‘lgan “Odissey” dostonida ham vafodor ayol timsoli yorqin ifoda topgan. Asarda Penelopa obrazi orqali sadoqatli ayol qiyofasi tasvirlanadi. U yigirma yil davomida eri Odisseyning daragini eshitmasa ham, ko‘plab sovchilar kelishiga qaramay, eriga sadoqat bilan uning qaytishini kutadi (Homer, 2024: 7–35). Shu tariqa, jahon adabiyotida ayol obrazi aql-zakovat, mehr-muhabbat, sadoqat va matonat kabi insoniy fazilatlarining badiiy ifodasi sifatida talqin etilib, turli xalqlarning axloqiy qarashlari hamda ma‘naviy qadriyatlarini namoyon etadi. O‘zbek va jahon adabiyotida ayollar obrazi ko‘plab o‘xshash jihatlariga ega. Avvalo, ayol ko‘pincha mehr-muhabbat va sadoqat timsoli sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, ayrim asarlarda u jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizlik qurboni sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bunday obrazlarda ayolning ichki ruhiy kechinmalari, iztiroblari va ma‘naviy olami chuqur badiiy tasvir orqali ochib beriladi. Shu bilan birga, o‘zbek va jahon adabiyotidagi ayol obrazlari o‘rtasida ayrim farqli jihatlar ham mavjud. Bu farqlar, asosan, milliy mentalitet, urf-odatlar, tarixiy sharoit va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Har bir xalq adabiyotida ayol obrazi o‘sha jamiyatning ijtimoiy hayoti, ma‘naviy muhitini aks ettiruvchi muhim badiiy timsol sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Bugungi kunda adabiyot ayolning nafaqat oiladagi o‘rni, balki uning orzu-intilishlari, ichki dunyosi va jamiyatdagi mavqeini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qilmoqda.

Zero, ayol siymosi orqali xalqning o‘zligi, ma‘naviy qadriyatlari hamda kelajakka bo‘lgan qarashlari aks etadi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy ijodida ham ayollar haqida ko‘plab qimmatli fikrlar uchraydi. Ulug‘ mutafakkir ayollarning ta‘lim olishi, ma‘naviy va axloqiy kamolotga erishishini muhim deb bilgan. Shu sababli ham uning asarlarida ayol obrazi nafaqat go‘zallik timsoli, balki komillik, donishmandlik va ma‘naviy yetuklik ramzi sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent, 2024. – 269 b.
2. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent, 2024. – 374 b.
3. To‘xtaboyev X. Qiz bolaga tosh otmang. – Toshkent, 2025. – 261 b.
4. Yusupova G. Farrosh ayol. – Toshkent, 2024. – 5 b.
5. Safarov X. Ona vidosi. – Toshkent, 2025. – 22 b.
6. Homer. Odisseya. – Toshkent, 2024. – 702 b.
7. Ergasheva R. Sirojiddin Sayyid’s skill in using the art of tameh. Zenodo platformasi. <https://zenodo.org/records/8398925>
8. O‘rolova, J. B., Ergasheva, R. O‘. “Shahriyor dostoni va dunyo adabiyotida qush obrazi” // *New Renaissance xalqaro ilmiy jurnali*. – 2026. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18202759>